

“EY NOZANIN” ASHULASINING BADIY VA IFODALI
TAXLILI

Saydasheva Nazokat Aijonovna
Andijon Davlat pedagogika institut
Ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti
Musiqqa ta’limi yo’nalishi 1-kurs
102-guruh talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Respublikamizda so’ngi yillarda ta’lim tizimidagi tub o’zgarishlar, maqom va katta ashula haqida fikrlar bildirilgan. Maqom yo’lining kelib chiqishi, o’quvchilarning maqom va katta ashulaga bo’lgan qiziqishiga, musiqiy qobilyatiga, maqom asarlarining ma’no va mazmunini anglab olish masalalarini rivojlantirishga bog’liqdir.*

Kalit so’zlar: *Eynozanin, maqom, ijod, ashula, janr, sharqxaqlari, shoir, pedagog, madrasa, g’azallar, qadriyalar.*

Artistic and expressive interpretation of the song" Eynozanin"

Saidasheva Nazokat Aijonovna
Andijan State Pedagogical Institute
Faculty of Social Sciences and humanities
Music education course 1st year
Group 102 student

Annotation: *in this article in recent years in our Republic about fundamental changes in the educational system, status and great singing opinions expressed. The origin of the Maqam road, the students' his interest in status and big singing, his musical abilities, issues of understanding the meaning and content of maqam works depends on the development.*

Keywords: *Eynozanin, status, creativity, singing, genre, Orientals, poet, educator, madrasa, ghazals, qadryas.*

Respublikamizda so'ngi yillarda ta'lim tizimida yosh avlodni aqliy, jismoniy va ma'naviy kamolotga yetkazishda tub islohatlar olib borilmoqda." Kadrlar tayyorlash milliydasturi" da uzluksiz ta'limning barcha bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning huquqiy, iqtisodiy bilimlarini oshirish, taxsil oluvchilarning ta'lim-tarbiyasini rivojlantirish, madaniyatli va o'z e'tiqodi uchun sodiq yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan e'tiborni har qachongidan ham kuchaytirish zarurligiga alohida urg'u berilgan.

Mahoratli pedagog o'quvchilar ruhiyatini, bilim darajasini hisobga oladi. Pedagogning odobi, madaniyati yuqori bo'lsa, odamlarga nisbatan adolatli va sahovatli bo'ladi. Pedagog umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganishi va faoliyati jarayonida tadbqiq eta olishi ham zarurdir. Insonni ma'naviy kamolotga erisishida fan adabiyot va boshqa muhim tarmoqlardagidek san'atning xususan musiqa san'atining o'rni beqiyos.

Ayniqsa o'zbek musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, an'anaviy qo'shiqlar alohida o'rin tutadi. "Ey nozanin" qo'shig'i mazmuni, ohanglari va ijro uslubi bilan bu san'atning nozik tomonlarini namoyon etadi. Ushbu maqolada "Eynozanin" qo'shig'ining tarixi, mazmun-mohiyati hamda xonandalik ijrosidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari muhim o'rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo'shiq singari aytimlarga nisbatan ovoz doirasining kengligi hamda kuychan, so'lim ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo'lgan xalq she'rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she'riyat asosida aytiladi. "Tanavor", "Eynozanin", "Oydek to'libdur", "Farzona", "Ul parivash", singari xalq ashulalari nafaqat hofiz-ashulachilar, balki ziyolilar, hunarmandlar, kosiblar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. Shuningdek, bu turdagi ashulalar xotin-qizlar tomonidan ham "ichkarida" kuylangan. Jumladan, "Chaman ichra", "Tanavor"ning "Qorasochim" kabi ashula yo'llari dutor jo'rligida xotin qizlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Hayoti

Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning otasi toshkentlik, onasi Oyshabibi esa xo'jandlik bo'lib, ular Qo'qonda yashagan. Muqimiy boshlang'ich ma'lumotni mahallasidagi maktabda olgan. Onasi Muhammad Aminxo'jada she'riyatga havas uyg'otgan. Muqimiy Qo'qon shahridagi Nodira tomonidan qurdirilgan "Mohlaroyim" madrasasida so'ngra Buxoro madrasalaridan birida o'qigan.

Ijodi

70-yillar oxirlarida Qo'qonga qaytgan va ijod bilan shug'ullangan. Otasi vafotidan so'ng moddiy ahvoli og'irlashgach, „Hazrat“ madrasasining kichik bir hujrasiga ko'chib o'tgan (1885), butun umri qashshoqlikda kechgan. Bir necha bor Toshkentga sayohat qilgan (1887-1888, 1892), Toshkentdagi yangiliklar bilan tanishgan. Toshkent madaniy va adabiy hayotini chuqur o'rgangan. Muqimiy yashab ijod etgan davr adabiy hayoti murakkab edi. Bunday muhit Muqimiy ijodiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Navoiy, Jomiy, Nizomiy va Fuzuliydan o'rgandi, ular g'azallariga muhammaslar bog'ladi. Jomiyning o'ziga ustoz bildi. O'zbek fors mumtoz shoirlari an'analari davom ettirdi. O'zbek adabiyotida demokratik yo'nalishning vujudga kelishi va shakllanishi Muqimiy nomi bilan bog'liq. U boshliq Furqat Zavqiy Avaz Komil kabi ilg'or fikrli shoirlar o'zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa ochdilar. Muqimiy real muhabbatni, insonni kuylagan. She'rlarining tub mohiyatini inson kechinmalari, sevinch va alamlari, istak va armonlari, kurashlari tashkil etgan. Ularda do'stlik, sadoqat, samimiyat vafodorlik, sabot va matonat ulug'langan va bular orqali shoir kishilarda yaxshi xususiyatlarni tarbiyalashga intilgan. Hasrat, shikoyat, norozilik motivlari mavjud bo'lgan she'rlarida ham kelajakka ishonch, farovon hayot haqidagi orzu-ideallari aks etgan.

Muqimiy lirik shoir. Muhabbat mavzusi uning lirikasida asosiy o'rin tutadi. „Oshiq bo'libman“ „Ayrilmasun“ O'zim har joydaman“ „Aqlu hush uchdi boshimdin...“, 'Ey nozanin' kabi she'rlari bunga misol.

“Ey nozanin”

Ey nozanin ishqing bilan devonaman,
Oqshomlari uyqum kelmay to'lg'onaman.
Parilardek ochib yuzing, nihon bo'lding,
Xud baxudba rashkim kelib qizg'onaman.

Asar “re-minor” tanalligida yozilgan, ovoz diapazonining eng pastki tovushi birinchi oktava do, yuqori avji esa ikkinchi oktava fa tovushiga to'g'ri keladi

Qo'shiqda asosiy mavzu sevgi va uning keltirgan iztiroblaridir. “Ey nozanin” so'zi, aslida “Ey go'zal qiz” degan ma'noni anglatadi, va bu ibora sevgan insonga bo'lgan intilish va yuksak hurmatni ifodalaydi.

She'rlarda sevgi orqali insonning ruhiy holati, qalbdagi iztirob, shuningdek, ayriliq va qayg'ular tasvirlanadi

“Ey nozanin” she'ri, Muqimiyning eng muhim asarlaridan biridir. Bu asar sevgi, hasrat, ayriliq va orzu mavzulari atrofida ishlab chiqilgan.

She'rda har bir element o'zaro uyg'unlikda ishlaydi: til, tuzilma, simvollar va she'riy uslublar bir-biriga mos keladi. Shoirning ichki dunyosi va sevgi haqidagi tasavvurlari uni nafaqat Azərbaycan adabiyotining yirik shoirlaridan biri, balki dunyo adabiyotining ajralmas bir qismi qilib ko'rsatadi.

Shu bilan birga, Muqimiy she'ri orqali o'quvchi, muhabbat va uning saboq oladigan tomonlarini yana bir bor tushunib, unda nafaqat hissiy, balki falsafiy boylikni ham ko'radi.

Xulosa

Musiqqa darsi o'z tabiatiga ko'ra san'at darsidir. Uni rag barang, sermazmun va qiziqarli tashkil qilish har bir o'qituvchidan katta pedagogic va professional mahoratni talab etadi. Bolalarni san'atga o'rgatish nihoyatda murakkab, -deb ta'kidlaydi. Taniqli kompozitor

D.B.Kabalevskiy – hamma murakkablik shundaki,ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakam san’atga o’rgatish mutlaqo mumkin emas’.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. D.Jamolova,N.Utayeva ,, Fortepiano olamiga ilk qadamlar,, Jahon kompozitorlari asarlaridan namunalar.Bolalar musiqa va san’at maktablari uchun o‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent.2016.
2. R.Qodirov, “Ommabop musiqa glossariy,, ma’lumotnoma ,, Musiqa ”nashriyoti Toshkent 2014.
3. 7-sinf uchun darslik,,Musiqa” G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi Toshkent -2017.
4. O Karimov.Muqimiy ijodi klaster tahlilda.
5. N.Karimov, B.Nazarov, U.Narmatov, Q.Yo‘ldashev. Adabiyot darslik. Toshkent-2004. Ushbu maqolada O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidan (2000-2005). foydalanilgan.

LITERATURE USED.

1. D.Jamolova, N.Utayeva,, the first steps into the world of piano,, world composers samples from his works.Educational methodical for children's music and art schools manual. Tashkent.2016.
2. R.Kadyrov, publishing house "glossary of popular music,, reference,, Music" Tashkent 2014.
3. Textbook for the 7th grade, Music" Creative House of publishing house named after Gafur Gulam Tashkent -2017.
4. O Karimov.Muqimi's work in cluster analysis.
5. N.Karimov, B.Nazarov, U.Narmatov, K.Yudashev. Literature textbook. Tashkent-2004.

This article incorporates information from the National encyclical of Uzbekistan (2000-2005). used.